

Yusufjonova Shaxloxon Muxtorovna, PhD,dotsent, FarDU.

usufzonovasahlo@gmail.com +998884133377 orcid.org/0000-0002-7124-4120



NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIZMLARDA MILLIY MENTALITETNING AKS ETISHI

<https://zenodo.org/records/18766702>

Annotatsiya: Mazkur maqolada nemis va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarda milliy mentalitetning aks etishi qiyosiy-lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologizmlarning xalq dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, milliy tafakkur va madaniy stereotiplarni ifodalashdagi o‘rni ochib beriladi. Ishda tavsifiy, qiyosiy, semantik, lingvomadaniy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijalari frazeologizmlar milliy mentalitetni saqlovchi va avloddan avlodga uzatuvchi muhim til qatlamlaridan biri ekanini ko‘rsatadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, har bir xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy tuzumi, urf-odatlar va an‘analari frazeologik birliklarda o‘ziga xos ramziy va obrazli shaklda mujassam bo‘ladi. Frazeologizmlar tilning tayyor, barqaror birliklari sifatida nafaqat kommunikativ vazifani bajaradi, balki xalqning uzoq asrlar davomida shakllangan ijtimoiy tajribasini ham o‘zida aks ettiradi. Shu jihatdan ular milliy ong va kollektiv xotiraning lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Nemis tilidagi frazeologik birliklarda tartib-intizom, aniqlik, mehnatsevarlik, individuallik va ratsionallik kabi mental xususiyatlar ko‘proq ifodalansa, o‘zbek tilida jamoaviylik, mehmondo‘stlik, sabr-toqat, kattalarga hurmat va oilaviy qadriyatlarga sodiqlik kabi fazilatlar ustuvorlik qiladi. Bu farqlar har ikki xalqning madaniy modeli va tarixiy rivojlanish yo‘li bilan bevosita bog‘liqdir. Shu bilan birga, ayrim frazeologizmlarda umuminsonga xos qadriyatlar — ezgulik, halollik, mehnatga munosabat, do‘stlik va adolat kabi tushunchalar ham o‘z ifodasini topadi, bu esa madaniyatlararo o‘xshashliklarni ko‘rsatadi. Qiyosiy-lingvomadaniy tahlil shuni ko‘rsatadiki, frazeologizmlar milliy mentalitetni bevosita va bilvosita ifodalovchi semantik kodlar tizimini hosil qiladi. Ular orqali jamiyat tomonidan ma‘qullanadigan xulq-atvor me‘yorlari, axloqiy tamoyillar va ijtimoiy ideallar mustahkamlanadi. Frazeologik birliklarning obrazlilik va emotsional-ekspressivligi milliy tafakkurning o‘ziga xosligini yanada yorqinroq namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, milliy mentalitet, lingvomadaniyat, dunyo manzarasi, milliy tafakkur, madaniy stereotip, qiyosiy tilshunoslik

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МЕНТАЛИТЕТА ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ НЕМЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Аннотация. В данной статье проводится сопоставительно-лингвокультурологический анализ отражения национального менталитета во фразеологических единицах немецкого и узбекского языков. В исследовании

раскрывается роль фразеологизмов в выражении народного мировоззрения, системы ценностей, национального мышления и культурных стереотипов. В работе использованы описательный, сопоставительный, семантический, лингвокультурологический и контекстуальный методы анализа. Результаты исследования показывают, что фразеологизмы являются одним из важнейших языковых пластов, сохраняющих национальный менталитет и передающих его из поколения в поколение.

В ходе исследования установлено, что исторический опыт, социальный уклад, обычаи и традиции каждого народа находят своеобразное символическое и образное отражение во фразеологических единицах. Фразеологизмы как устойчивые и готовые языковые единицы выполняют не только коммуникативную функцию, но и отражают социальный опыт народа, сформировавшийся на протяжении многих веков. В этом смысле они выступают как лингвистическое выражение национального сознания и коллективной памяти. Во фразеологических единицах немецкого языка чаще выражаются такие ментальные характеристики, как порядок, точность, трудолюбие, индивидуализм и рациональность, тогда как в узбекском языке приоритетными являются коллективизм, гостеприимство, терпение, уважение к старшим и преданность семейным ценностям. Эти различия напрямую связаны с культурной моделью и историческим путем развития каждого народа. Вместе с тем в ряде фразеологизмов находят отражение общечеловеческие ценности — доброта, честность, отношение к труду, дружба и справедливость, что свидетельствует о межкультурных сходствах.

Ключевые слова: фразеология, этнокультура, этнокультурный признак, лингвокультура, национальное мышление, культурный код, концептуальный анализ, коллективное сознание, система ценностей, сопоставительное языкознание

REFLECTION OF NATIONAL MENTALITY IN PHRASEOLOGICAL UNITS OF GERMAN AND UZBEK

Abstract: This article presents a comparative linguocultural analysis of the reflection of national mentality in phraseological units of the German and Uzbek languages. The study reveals the role of phraseological units in expressing the people's worldview, value system, national thinking, and cultural stereotypes. Descriptive, comparative, semantic, linguocultural, and contextual methods of analysis were employed. The results demonstrate that phraseological units constitute one of the most important layers of language that preserve national mentality and transmit it from generation to generation. The research shows that the historical experience, social structure, customs, and traditions of each nation are embodied in phraseological units in a specific symbolic and figurative form. As stable and ready-made linguistic units, phraseologisms perform not only a communicative function but also reflect the social experience of a people formed over centuries. In this regard, they serve as a linguistic expression of national consciousness and collective memory. In German phraseological units, such mental characteristics as orderliness, precision, diligence, individualism, and rationality are more prominently expressed, whereas in Uzbek, collectivism, hospitality, patience, respect for elders, and devotion to family values are prioritized. These differences are directly related to the cultural model and historical development of each nation. At the same time, certain phraseological units reflect universal human values — kindness, honesty, attitudes toward work, friendship, and justice — which indicate intercultural similarities.

Keywords: phraseology, ethnoculture, ethnocultural feature, linguoculture, national mentality, cultural code, conceptual analysis, collective consciousness, value system, comparative linguistics

Kirish:

Zamonaviy tilshunoslikda til faqatgina kommunikatsiya vositasi, ya'ni axborot almashish quroli sifatida emas, balki xalqning dunyoqarashi, tafakkur tarzi, ijtimoiy ong shakllari va madaniy xotirasini saqlovchi murakkab tizim sifatida talqin qilinmoqda. Til insonning borliqni idrok etish usulini, voqelikka munosabatini va qadriyatlar tizimini aks ettiradi. Shu bois ham bugungi kunda tilshunoslik antropotsentrik yo'nalishda rivojlanib, tilni inson omili bilan uzviy bog'liq holda o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. Til – bu millat ruhining ko'zgusi, unda xalqning tarixiy taraqqiyot yo'li, ijtimoiy tajribasi va madaniy merosi mujassam bo'ladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar tilning eng “madaniy yuklangan” qatlamlaridan biri hisoblanadi. Chunki frazeologizmlar oddiy leksik birliklardan farqli ravishda ko'chma ma'no, obrazlilik va emotsional-ekspressivlik xususiyatiga ega bo'ladi. Ular xalqning ko'p asrlik tajribasi, hayotiy kuzatuvlari, urf-odatlar, an'analari va milliy mentaliteti asosida shakllanadi. Har bir frazeologik birlik ortida muayyan tarixiy voqelik, maishiy turmush tarzi yoki ijtimoiy munosabatlar yotadi. Frazeologizmlar orqali xalqning dunyoni qanday tasavvur qilishi, yaxshilik va yomonlikni qanday mezonlar asosida baholashi, mehnat, jasorat, halollik, sabr-toqat kabi tushunchalarga qanday ma'no yuklashi namoyon bo'ladi. Masalan, mehnatsevarlikni, sabrni yoki mardlikni ifodalovchi iboralar millatning qadriyatlar tizimini ochib beradi. Shu jihatdan frazeologik birliklar nafaqat lingvistik, balki madaniy, etnografik va psixologik jihatdan ham muhim tadqiqot obyekti sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Tadqiqot zamonaviy frazeologiya, lingvomadaniyat, etnolingvistika va kognitiv tilshunoslik nazariyalariga tayangan holda olib borildi. Nazariy asos sifatida V.N. Teliya, A.V. Kunin, V.A. Maslova, Y..S. Stepanov, Wilhelm von Humboldt, Harald Burger kabi olimlarning ishlari xizmat qildi. Mazkur olimlarning ilmiy qarashlari frazeologiyaning nafaqat til tizimidagi o'rni, balki uning madaniy-semantik va kognitiv tabiatini ochib berishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Xususan, frazeologik birliklarning obrazlilik, milliy-madaniy belgilanganligi, konseptual tizim bilan bog'liqligi va diskursiv funksiyasi mazkur nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tavsifiy-analitik metod – frazeologik birliklarni to'plash, saralash, tasniflash va tizimlashtirish uchun qo'llanildi. Ushbu metod yordamida nemis va o'zbek tillaridagi mavzuga oid frazeologizmlar lug'atlar, badiiy adabiyotlar hamda ommaviy axborot vositalari materiallari asosida yig'ildi va ularning struktur-semantik xususiyatlari tavsiflandi. Qiyosiy-tipologik metod – ikki til frazeologik tizimining umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qildi. Bu metod asosida o'xshash semantik maydonga mansub birliklar o'zaro solishtirildi, milliy xususiyatlar va universallik darajasi belgilandi. Natijada, har ikki tilga xos bo'lgan mental modellarning o'xshash va tafovutli jihatlari ochib berildi. Semantik va komponent tahlil – frazeologizmlar tarkibidagi asosiy va qo'shimcha ma'no qatlamlarini aniqlash, ularning konnotativ va denotativ xususiyatlarini farqlash imkonini berdi.

Komponent tahlil orqali birliklarning ichki semantik tuzilishi, obrazli asoslari va madaniy kodlari aniqlashtirildi. Lingvomadaniy tahlil – frazeologik birliklarda aks etgan milliy qadriyatlar, mental stereotiplar va konseptual modellarning mazmunini izohlashga qaratildi. Ushbu metod yordamida til birliklarining madaniy kontekst bilan uzviy bog'liqligi va ularning milliy ongni shakllantirishdagi roli ochib berildi. Kontekstual tahlil – frazeologik birliklarning real nutq jarayonidagi funksional yukini aniqlashga xizmat qildi. Bunda birliklarning matndagi stilistik vazifasi, ekspressivligi, pragmatik yo'nalishi hamda

kommunikativ maqsadga ko'ra qo'llanish xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, tadqiqot davomida tizimli yondashuv asosida frazeologik birliklar semantik maydonlar doirasida guruhlandi va ular orqali shakllanadigan konseptual strukturalar modellashtirildi. Bu esa frazeologiyaning nafaqat leksik birliklar majmui, balki murakkab madaniy-kognitiv tizim ekanini ilmiy asosda ko'rsatishga imkon berdi. Natijada qo'llanilgan metodlar majmui frazeologik birliklarning strukturaviy, semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini kompleks ravishda yoritish, shuningdek, nemis va o'zbek tillarida milliy mentalitetning til vositasida qanday namoyon bo'lishini chuqurroq ochib berish imkonini yaratdi. Bundan tashqari, frazeologizmlar tilning milliy o'ziga xosligini ta'minlovchi vositalardan biridir. Turli xalqlarda bir xil mazmun turlicha obrazlar orqali ifodalanishi mumkin. Bu esa har bir xalqning tabiat, jamiyat va inson haqidagi tasavvurlaridagi farqlarni ko'rsatadi. Demak, frazeologik birliklarni o'rganish milliy mentalitetni, xalqning tarixiy-madaniy tajribasini va tafakkur xususiyatlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natija va muhokama.

Milliy mentalitet tushunchasi xalqning dunyoni idrok etish usuli, voqelikka munosabati, qadriyatlar ierarxiyasi va tafakkur qoliplarini anglatadi. Bu xususiyatlar eng yorqin tarzda aynan frazeologiyada namoyon bo'ladi. Chunki frazeologizmlar — bu oddiy so'z birikmalari emas, balki kollektiv ong mahsuli, tarixiy tajriba va madaniy xotiraning til shakliga ko'chgan ifodasidir. Ular xalqning asrlar davomida shakllangan turmush tarzi, axloqiy me'yorlari va estetik qarashlarini o'zida mujassam etadi.

Masalan, o'zbek tilida:

“Oqsoqol” (hurmat, tajriba),

“Ota uyi” (muqaddaslik),

“Yuragi keng” (olijanoblik)[10.125]

kabi birliklar milliy qadriyatlarni, avlodlar uzviyligini, kattalarga hurmat va oilaviy an'analarga sodiqlikni ifodalaydi. Bu kabi frazeologizmlar orqali o'zbek mentalitetida jamoaviylik, mehr-oqibat, saxovat va ijtimoiy hamjihatlik ustuvor qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, “oqsoqol” tushunchasi nafaqat yosh jihatdan kattalikni, balki donolik va ijtimoiy mas'uliyatni ham anglatadi. “Ota uyi” esa oilaning muqaddas makon sifatidagi konseptual modelini ifodalaydi.

Nemis tilida esa:

“Ordnung muss sein” (tartib — qadriyat),

“Zeit ist Geld” (vaqt qadri),[1.87]

“Pünktlich wie die Maurer” (intizom) kabi birliklar nemis mentalitetiga xos tartib-intizom, aniqlik, vaqtni qadrlash va mehnatsevarlik kabi xususiyatlarni aks ettiradi. Bu frazeologizmlar orqali ratsionallik, individual mas'uliyat va tizimlilik qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, “Zeit ist Geld” iborasi vaqtni iqtisodiy va ijtimoiy resurs sifatida idrok etish modelini ifodalasa, “Ordnung muss sein” tartib va qoidalarga rioya qilishni jamiyat barqarorligining asosi sifatida talqin qiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, frazeologik birliklar milliy mentalitetni bevosita ifodalash bilan birga, uni shakllantiruvchi va mustahkamlovchi vosita hamdir. Ular orqali jamiyat ma'qullaydigan xulq-atvor me'yorlari, ideal shaxs modeli va ijtimoiy munosabatlar tizimi til vositasida kodlanadi. Frazeologiya milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish, madaniy merosni avloddan avlodga uzatish hamda kollektiv ongni barqarorlashtirish funksiyasini bajaradi.[3.109]

Mazkur maqolaning maqsadi — nemis va o'zbek tillarida frazeologizmlar orqali milliy mentalitet qanday aks etishini qiyosiy tahlil qilish, o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash hamda frazeologiyaning lingvomadaniy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqot

natijalari til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni chuqurroq anglash, shuningdek, qiyosiy lingvokulturologiya doirasida milliy tafakkur modellari qanday shakllanishini ilmiy asosda ko'rsatishga xizmat qiladi.1. O'zbek frazeologiyasida milliy mentalitet. O'zbek tilida frazeologizmlar ko'pincha: oilaviy qadriyatlar, kattaga hurmat, sabr, qanoat, jamoaviylik, tushunchalarini ifodalaydi: “Kattani katta, kichikni kichik bilmoq”, “Yuragi keng”

“Ota uyi”, “Sabr qilgan — sariq oltin”, Bu birliklar o'zbek xalqining axloqiy-ijtimoiy mentalitetini ko'rsatadi.[10.102]

2. Nemis frazeologiyasida milliy mentalitet. Nemis tilida esa: tartib, intizom, aniqlik, mehnatsevarlik, vaqt Qadri ustuvor: “Ordnung muss sein”, “Zeit ist Geld”, “Ohne Fleiß kein Preis”, “Pünktlichkeit ist die Höflichkeit der Könige” Bu birliklar nemis mentalitetining ratsional va pragmatik xarakterini aks ettiradi. O'zbek mentaliteti — axloqiy-ijtimoiy, Nemis mentaliteti — ratsional-tashkiliy yo'nalishda ekani frazeologiyada yaqqol ko'rinadi. Olingan natijalar frazeologiyani milliy ongning tildagi kontsentrlashgan ifodasi sifatida qarash mumkinligini isbotlaydi. Frazeologizmlar xalq tafakkuri va madaniyatini faqat aks ettiribgina qolmay, uni saqlaydi va avlodlarga uzatadi. Frazeologiya — bu madaniy xotira mexanizmidir.[4.128]

Xulosa.

1.Xulosa qilib aytganda, nemis va o'zbek tillaridagi frazeologizmlar milliy mentalitetni, dunyoqarashni, qadriyatlar tizimini hamda tafakkur modellarini o'zida mujassam etgan madaniy-kognitiv kod sifatida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat tayyor til birligi, balki xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy xotirasi va ruhiy dunyosining siqilgan, obrazli shakldagi ifodasidir. Har bir frazeologizm ortida muayyan madaniy kontekst, hayot tarzi, tarixiy sharoit va milliy qadriyatlar tizimi yashiringan bo'ladi. Shu sababli frazeologiyani o'rganish tilni o'rganish bilangina cheklanmay, balki xalqning ma'naviy olamini anglashga ham xizmat qiladi.

2.Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, frazeologiya tilning eng “milliy” qatlamidir. Chunki aynan frazeologik birliklarda xalqning o'ziga xos tasavvur tizimi, obrazli fikrlash tarzi va emotsional baholash mezonlari mujassamlashadi. Ular xalq ruhiyatini saqlaydi va uni avloddan avlodga uzatadi. Frazeologizmlar milliy xotiraning barqaror tashuvchisi bo'lib, til egalari ongida uzoq vaqt davomida saqlanadi hamda kundalik nutqda faol qo'llanadi.

3.Nemis va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, farqlar faqat lingvistik vositalarda emas, balki tafakkur va madaniyatning o'ziga xosligida ham namoyon bo'ladi. Masalan, bir xil hayotiy vaziyat turli xalqlarda turlicha obrazlar orqali ifodalanadi. Bu esa ularning borliqni idrok etish, hodisalarga baho berish va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish usullari turlicha ekanini ko'rsatadi. Demak, til farqi — bu, avvalo, madaniy va kognitiv farqdir. Shu jihatdan mazkur tadqiqot qiyosiy tilshunoslik uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. U ikki til tizimidagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash orqali universallik va milliylik nisbatini belgilashga yordam beradi. Bundan tashqari, lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan frazeologizmlar milliy madaniyatni kodlashtiruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Etnolingvistika uchun esa ular xalqning urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlari va tarixiy ongini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

4.Umuman olganda, nemis va o'zbek tillaridagi frazeologizmlar qiyosiy tadqiqi nafaqat til tizimidagi xususiyatlarni ochib beradi, balki ikki xalqning tafakkur modeli, madaniy stereotiplari va mentalitetini chuqurroq anglash imkonini yaratadi. Bu esa zamonaviy antropotsentrik tilshunoslik doirasida madaniyat va til o'zaro bog'liqligini yanada asosli ravishda yoritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Teliya V.N. Russkaya frazeologiya. Moskva, 1996.
- 2.Kunin A.V. Kurs frazeologii. Moskva, 1996.
- 3.Maslova V.A. Lingvokulturologiya. Moskva, 2001.
- 4.Stepanov Yu.S. Konstanty. Moskva, 2004.
- 5.Burger H. Phraseologie. Berlin, 2010.
- 6.Humboldt W. von. On Language. Cambridge, 1988.
- 7.Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. Oxford, 1997.
- 8.Sapir E. Language. New York, 1921.
- 9.Whorf B.L. Language, Thought and Reality. Cambridge, 1956.
- 10.Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent, 1992.

Ma’rifat Xusanova, FarDU katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) <http://orcid.org/0000-0003-2736-2346>

xusanovamarifat84@gmail.com

Ruxshona Toshpo‘latova

FarDU filologiya fakulteti talabasi



USMON AZIM TARJIMALARI LINGVOPOETIKASI XUSUSIDA (BORIS PASTERNAKNING “HAMLET” SHE’RI MISOLIDA)

<https://zenodo.org/records/18766921>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning tarjimalari lingvopoetik tahlilga tortiladi. Shoirning tarjima jarayonida qo‘llagan uslubi, badiiy-estetik yondashuvi hamda lingvopoetik imkoniyatlarni qay darajada saqlab qola olgani hamda yarata olgani ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, asl matn va tarjima matni o‘rtasidagi semantik, sintaktik va uslubiy tafovutlar hamda ular orqali yuzaga keladigan poetik uyg‘unlik masalalari tahlil etiladi. Tadqiqotda Usmon Azimning ijodiy tafakkuri, milliy va jahon adabiyoti o‘rtasidagi bog‘lanishlari, shuningdek, tarjima jarayonida milliy ruhni ifodalashdagi o‘ziga xos jihatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Usmon Azim, tarjima, lingvopoetika, badiiy tarjima, poetik uyg‘unlik, milliy ruh, uslub, adabiy jarayon, yangi matn yaratish.

ON THE LINGUOPOETHICS OF USMAN AZIM'S TRANSLATIONS (ON THE EXAMPLE OF BORIS PASTERNAK'S POEM “HAMLET”)

Abstract: This article examines the translations of the People's Poet of Uzbekistan, Usman Azim, in a linguopoetic analysis. The poet's style, artistic and aesthetic approach, and the extent to which he was able to preserve and create linguopoetic possibilities in the translation process are scientifically examined. The semantic, syntactic, and stylistic differences between the original text and the translation text, as well as the issues of poetic